

“Kelajak soati” darsining 1-4-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:
27-mavzu: “Yil boshi – Navro‘z”

Dars maqsadi: O‘quvchilarning Navro‘z milliy bayrami haqida tushunchalarini rivojlantirish. Kichik yoshdagi o‘quvchilar qalbida milliy bayram, urf-odatlar, Navro‘z taomlariga nisbatan hurmat tuyg‘usini shakllantirish. Navro‘z urf-odatlarini va marosimlarini bolalarga qiziqarli uslubda taqdim etish.

Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

O‘quvchilar Navro‘z bayrami o‘zbek xalqining milliy bayrami ekanligini anglaydi;

Milliy bayramimiz – Navro‘zning nishonlanishi bilan bog‘liq urf-odat va an‘analar bilan tanishadi;

Navro‘z bayramining tarixi, milliy taomlari haqida tushunchaga ega bo‘ladi.

Metapredmet: O‘quvchilar Navro‘z bayramining qadimiy va milliy bayramlarimizdan biri ekanligini, bayramning tabiatdagi o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘liq ekanligini, bayram bilan bog‘liq urf-odat va an‘ana, she‘r va qo‘shiqlarni o‘rganadilar. Bu mavzu bir nechta fanlar bilan bog‘liq holda o‘tiladi: “O‘qish savodxonligi” darsida o‘quvchilar Navro‘z haqidagi matnlar, she‘rlar va hikoyalarni o‘qib, ularning mazmunini tushunadilar; “Musika” darsida Navro‘zga bag‘ishlangan qo‘shiqlarni o‘rganib, kuylaydilar; “Tabiat” darsida esa bahor faslida tabiatda yuz beradigan o‘zgarishlar va ularning Navro‘z bayrami bilan bog‘liqligini bilib oladilar.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.
<https://milliytarbiya.uz>

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Tavsiya etilgan mashg‘ulot shakli: Izohli suhbat metodi, audio-video materiallar, imitatsion o‘yin elementlari va qo‘shimcha ko‘rsatmali materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

Materiallar to‘plami:

- dars ssenariysi;
- nazariy ma‘lumotlar;
- video materiallar;
- interfaol topshiriqlar;
- taqdimot.

I. KIRISH QISMI (10 daqiqa)

O'qituvchi bir qo'lida rang-barang gullar, ismaloq, yalpiz, maysa va boychechaklar bilan to'la savatcha¹, ikkinchi qo'lida esa soyabon (zontik) bilan sinfga kirib keladi. Yuzida tabassum, bahoriy kayfiyat bo'lishi lozim: go'yoki sinfga bahor kirib kelgandek. Bu payt sinfda "Bahor valsi" yoki "O'rik gullaganda" kuyi yangrab turadi.

O'qituvchi: Assalomu alaykum, mening bilimdon o'quvchilarim! Bugun men sizlarning oldingizga bahorning elchisi sifatida kirib keldim.

Savatchadagi narsalarni ko'rsatadi.

– Qani ayting-chi, bu savatchada nimalarni bor ekan?

O'quvchilar:

– Gullar!

– Maysalar!

– Ismaloq!

– Yalpiz!

O'qituvchi: To'g'ri! Bularning barchasi bahorning belgilaridir.

Keyin o'qituvchi qo'lidagi soyabonga ishora qiladi.

– Men nega bu qo'limga soyabon ko'tarib oldim deb o'ylaysiz?

O'quvchilar turli fikrlarni aytadi.

O'qituvchi: Chunki bahorda ob-havo juda qiziq bo'ladi. Bir qarasangiz quyosh charaqlaydi, yana bir qarasangiz yomg'ir tomchilaydi. Go'yo tabiat ham bahor kelganidan quvonib, kulib ham, yig'lab ham olayotgandek bo'ladi. Aslida esa yomg'ir – bu dehqonlarimiz orziqib kutadigan suv manbaidir. Yomg'ir yetarlicha yog'masa, dehqon bobo hosil yetishtirish uchun suvdan qiynalib qoladi. Shu sababli yomg'ir yog'sa, ko'chada o'ynay olmadim deb ko'p xafa bo'lmanglar. Yomg'irda yerimiz suv ichib, hosil yetishtirishga tayyor bo'layotganini o'ylab quvoninglar.

O'qituvchi: Qani ayting-chi, bahor qanday fasl?

O'quvchilar javob beradi.

O'qituvchi: Nima uchun ko'pchilik odamlar aynan bahorni juda yaxshi ko'radi?

O'quvchilar fikr bildiradi.

O'qituvchi: To'g'ri aytdingiz. Bahor – bu yangilanish fasli. Daraxtlar kurtak chiqaradi, gullar ochiladi, qushlar qaytib keladi. Eng muhimi, odamlarning qalbida ham yangi quvonch paydo bo'ladi.

Bahor kelishi bilan eng go'zal va qadimiy bayramlardan biri ham kirib keladi.

O'qituvchi doskaga katta harflar bilan yozadi:

NAVRO'Z

¹ Savatchani to'ldirishda imkon qadar tirik gular va o'simliklardan foydalanish tavsiya etiladi, imkon bo'lmagan hollarda yasama gullarga ruxsat beriladi.

O‘qituvchi: Bolajonlar, kim bu bayram haqida eshitgan?

Bir nechta o‘quvchi javob beradi.

O‘qituvchi: Juda yaxshi! Demak bugun biz siz bilan bahorning eng go‘zal bayrami – Navro‘z haqida suhbatlashamiz.

- Bu bayram nimani anglatadi?
- Nega aynan 21-mart kuni nishonlanadi?
- Nima uchun sumalak pishiriladi?
- Navro‘zda qanday o‘yinlar o‘ynaladi?

Bugun biz bu savollarning barchasiga javob topamiz.

O‘qituvchi: Kelinglar, avval Navro‘z bayrami, uning quvonchli kayfiyati, bahor nafasi va undagi an‘analari haqida kuylangan qo‘shiqni birgalikda karaoke uslubida kuylaymiz.

Vizual kontent

“Navro‘z kelibon...” – Karaoke

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/462

II. ASOSIY QISM (25 daqiqa)

O‘qituvchi doskada yozilgan “Navro‘z” so‘ziga qarab davom etadi.

O‘qituvchi: Bolajonlar, hozirgina aytdikki, bahor kelganida tabiat uyg‘onadi, gullar ochiladi, qushlar issiq o‘lkalardan bizga qaytib keladi. Ana shu go‘zal o‘zgarishlar bilan birga xalqimiz hayotida ham juda muhim voqea yuz beradi. Bu – Navro‘z bayrami.

Navro‘z so‘zi qanday ma‘noni bildiradi?

Navro‘z so‘zi qadimiy fors tilidan kirib kelgan bo‘lib, **“yangi kun”** degan ma‘noni anglatadi. Lekin bu oddiy yangi kun emas. Bu – tabiat yangilanadigan, hayot qayta boshlanadigan kun.

Bilasizmi, nega Navro‘z aynan **21-mart kuni** nishonlanadi?

O‘qituvchi doskada yer va quyosh rasmini chizadi yoki globus orqali ko‘rsatadi.

O‘qituvchi: Chunki aynan shu kuni kun va tun tenglashadi. Ya‘ni yer yuzida kunduz ham, tun ham davomiyligi bir xil – 12 soatdan bo‘ladi. Shu kundan boshlab Yer sayyoramiz Quyoshga yaqinlashib boradi. Quyosh ham Yerga ko‘proq iliqlik bera boshlaydi. Daraxtlar kurtak chiqaradi, maysalar yer bag‘ridan unib chiqadi. Tabiat go‘yo qishki uyqusidan uyg‘onadi.

Qadim zamonlarda odamlar tabiat bilan juda yaqin yashagan. Dehqonlar yerga urug‘ sepish, bog‘bonlar daraxt ekish ishlarini aynan bahorda boshlagan. Shu sababli ular Navro‘z kelishini intizor kutishgan, Navro‘zni yangi dehqonchilik yili

boshlanishi sifatida quvonch bilan bayramlar qilib kutib olishgan. Yangi yilni aynan 21-martdan boshlanadi deb hisoblashgan.

Navro'zda odamlar bir-birini tabriklab shunday deganlar: **“Omonlik-somonlik, hech ko'rmaylik yomonlik.”** Bu tilakning ma'nosi juda chuqur. U odamlarning qishdan sog'-salomat o'tib, yangi yilni yaxshilik bilan boshlayotganini anglatuvchi tilakdir. Buni Navro'z bayramining shiori desak ham bo'ladi.

Odamlar Navro'zni turli parklarda yoki tabiat qo'ynidagi yam-yashil makonlarda nishonlashadi. Hozir yurtimizdagi shunday makonlardan biri – Termizdagi “etno shaharcha” bilan tanishamiz. Qani, ekranlarga qaraymiz.

Vizual kontent

Termizdagi “etno shaharcha” bo'ylab sayohat qildik

<https://youtu.be/Cp7SyTyUAto>

O'qituvchi: Bolajonlar, hammangiz yaxshi bilasizki, bahor kelishi bilan uy ishlari ham ko'payib qoladi: odamlar uylarini tozalagan, hovlilarini supurgan, daraxt ekkan. Chunki Navro'z – yangilanish va poklanish bayrami hisoblangan.

Boya aytdikki, Navro'z faqat bayram emas, u qadimda yangi yilning boshlanishi ham bo'lgan. Shu yerda yana bir qiziq an'ana haqida gapirib o'tamiz. Bu – muchal yili.

Qadimda odamlar vaqtni hisoblash uchun 12 yillik taqvimdan foydalanganlar. Har bir yil bir hayvon nomi bilan atalgan. Bu tizim muchal deb ataladi.

Qani, kim aytadi, sizlar qaysi muchal yilida tug'ilgansizlar? O'zingizning muchalingizni bilasizlarmi?

O'quvchilar javob beradi. Javobga qiynalishsa, o'qituvchi yordam beradi.

O'qituvchi: Barakalla, bolajonlar. Endi esa sizlarga muchal hayvonlarini sanab beraman. Demak, muchal hayvonlari quyidagilar:

sichqon, sigir, yo'lbars, quyon, baliq, ilon, ot, qo'y, maymun, tovuq, it va to'ng'iz.

Har 12 yil o'tgach, yana yangi muchal boshlanadi. Qadimda yangi muchal aynan Navro'zdan boshlangan.

Hozir sizlarga muchal haqida bir video qo'yib beraman.

Vizual kontent

Muchallar tarixi

https://youtu.be/X6Bk_7DQz-8

O'qituvchi: Endi biz kichkina “muchal o'yini” o'ynab ko'ramiz.

Interaktiv o'yin: “Muchalni top”

O'qituvchi muchal hayvonlari rasmlari tushirilgan kartochkalarni aralashtirib, teskari o'girib stolga qo'yadi. Bunda quyidagi suratdan foydalanish mumkin



Bir nechta o'quvchi doska oldiga chiqadi.

Har bir bola bittadan kartochka oladi.

O'qituvchi: Endi ayting-chi, bu hayvon muchalda nechanchi bo'lib keladi?

O'quvchi javob beradi. Shu tarzda bir nechta bola ishtirok etadi. Sinf kulib, qiziqib javob beradi.

O'qituvchi: Barakalla, bolajonlar. Demak, bugun uyga borganda uyingizdagilarning muchallarini so'rang va keyingi darsga o'sha hayvonlarning suratlarini chizib keling.

Navro'z deyilganida bir taom esga keladiki, uning nomini eshitganimizda ko'pchiligimizning ko'zimiz chaqnab ketadi. Bu – sumalak.

O'qituvchi savatchadan bug'doy donasini olib ko'rsatadi.

O'qituvchi: Mana shu oddiy bug'doy donasi Navro'zda juda ajoyib taomga aylanadi.

Sumalak bug‘doy maysasidan tayyorlanadi. Avval bug‘doy suvga ivitiladi, keyin undiriladi. Undan yashil maysa chiqadi. Ana shu maysa sharbatidan sumalak tayyorlanadi.

Lekin sumalakning eng qiziq tomoni shundaki, u yolg‘iz pishirilmaydi. Odamlar kechasi bilan birga yig‘ilib, qozonni aralashtirib, qo‘shiqlar aytib, yaxshi tilaklar bildirib sumalak pishiradilar.

Shuning uchun sumalak nafaqat taom, balki odamlarni birlashtiradigan an‘ana ham hisoblanadi.

Navro‘z dasturxonida yana boshqa bahor taomlari ham bo‘ladi. Masalan, ko‘k somsa, ko‘k chuchvara yoki halim. Bu taomlarning ko‘pchiligi bahorda chiqadigan ko‘katlardan tayyorlanadi. Chunki bahorda organizmimiz vitaminlarga ehtiyoj sezadi.

Navro‘z kunlari faqat taomlar bilan cheklanib qolmaydi. Bayram paytida odamlar sayillarga chiqishadi, qo‘shiqlar aytishadi, turli xalq o‘yinlarini o‘ynashadi.

Masalan, kurash musobaqalari o‘tkaziladi, dorbozlar dorlarini tikib dor o‘yinlari ko‘rsatishadi, arqon tortish o‘yinlari bo‘ladi, bolalar esa yayrab o‘ynaydi. Hozir sizlarga haqiqiy dorboz bilan suhbatni qo‘yib beraman. Diqqat bilan ko‘ring, juda qiziq bu.

Vizual kontent

“4 yoshimdan beri dor ustidaman” – dorboz yigit hikoyasi

<https://youtu.be/-jX1NOloZ4w>

O‘qituvchi: Qalay, qiziq kasb ekanmi dorbozlik? Orangizda dorboz bo‘lishni orzu qiladiganlar bormi?

Bolalar javobi tinglanadi.

O‘qituvchi: Bahor kelganda bolalar juda yaxshi ko‘radigan yana bir mashg‘ulot bor. Bu – varrak uchirish.

O‘qituvchi savatchadan kichik varrak maketini chiqaradi.

O‘qituvchi: Kim varrak uchirgan?

Ko‘pchilik qo‘l ko‘taradi.

O‘qituvchi: Bahorda shamol tez-tez esadi. Shuning uchun varrak osmonga juda baland ko‘tariladi. Bolalar uchun bu juda quvonchli mashg‘ulot hisoblanadi. Sizlar ham varraklarni keng dalalarda uchiringlar. Varrak uchiraman deb aslo uylarning tomlariga chiqa ko‘rmanglar. Bu juda xavfli, xo‘pmi?

O‘quvchilar: Xo‘p!

O‘qituvchi: Hozir sizlarga mashhur tilshunos olim va jamoatchilik faoli Eldor Asanov varrak yasashni o‘rgatadi. Qani, ekranga qaraymiz.

Vizual kontent

Eldor Asanov farzandlari bilan varrak yasadi

<https://youtu.be/llpOB0C8kNQ>

O‘qituvchi: Shunday qilib, Navro‘z – bu faqat bir kunlik bayram emas. U tabiat uyg‘onishi, yangi yil boshlanishi, odamlarning birlashishi bilan kamida bir oy davom etadigan quvonch va yaxshilik bayramidir.

III. YAKUNIY QISM (10 daqiqa)

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, bugungi darsimiz boshida men sizlarning oldingizga bahorning elchisi sifatida kirib kelgan edim. Endi ayting-chi, bahor bilan birga qaysi go‘zal bayram ham kirib kelar ekan?

O‘quvchilar bir ovozdan javob beradi:

O‘quvchilar: Navro‘z!

O‘qituvchi: Juda to‘g‘ri! Bugun sizlar bilan Navro‘z haqida juda ko‘p qiziqarli ma‘lumotlarni bilib oldik. Kelinglar, dars davomida o‘rganganlarimizni birgalikda yana bir bor eslab olamiz.

O‘qituvchi ketma-ket savollar beradi:

- Navro‘z so‘zi nimani anglatadi?
- Navro‘z qachon nishonlanadi?
- Navro‘z kelganda tabiatda qanday o‘zgarishlar bo‘ladi?
- Navro‘zning eng mashhur taomi qaysi?
- Muchal deganda nimani tushundik?
- Bahorda bolalar qanday qiziqarli mashg‘ulotni yaxshi ko‘radi?

O‘quvchilar javob beradi. O‘qituvchi ularni rag‘batlantiradi.

O‘qituvchi: Barakalla! Sizlar bugun juda faol bo‘ldingiz. Demak, Navro‘z – tabiatning uyg‘onishi, yangi yil boshlanishi, mehr-oqibat va birlik bayramidir.

O‘qituvchi savatchadan boychechak gulini olib ko‘rsatadi.

O‘qituvchi: Qaranglar, boychechak qanchalik kichkina bo‘lsa ham, bahor kelganini hammaga xabar beradi, ya‘ni yaxshilik ulashadi. Demak, har birimiz ham shunday bo‘lishimiz mumkin – atrofimizga quvonch, yaxshilik va mehr tarqatadigan insonga aylanish pallasini aynan shu Navro‘zdir.

Kelasi darsgacha har biringiz uchta ishni bajarib kelasiz:

1. Muchal hayvonlari suratlarini va “Mening Navro‘zim” mavzusida rasmlarni chizasiz.
2. Navro‘z haqida she‘r yoki maqol yodlab kelasiz.
3. Navro‘zni qanday nishonlaganingiz haqida gapirishga tayyorlanib kelasiz.

Keyingi darsimizda sizlarning rasmlaringizdan kichik “Navro‘z galereyasi” tashkil qilamiz. Eng qiziqarli hikoyalar va eng chiroyli rasmlar esa alohida rag‘batlantiriladi.

Barchangizni yaqinlashib kelayotgan Navro‘z bayrami bilan tabriklayman!
Shu bilan darsimiz tugadi. Rahmat sizlarga, mening bilimdon o‘quvchilarim!